

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

REFERAT

MAVZU: JAHON OTIN UVAYSIY

Bajardi: Rasulov E.

Tekshirdi: Adizova I.

Jahon otin Uvaysiy (1780 - 1845)

Yirik o'zbek mumtoz shoirasi Jahon otin Uvaysiy 1780-yillarning o'xirlarida Marg'ilonning Childuxtaron mahallasida tug'ildi. Otasi Siddiq bobo, onasi esa Chinni bibi ismli ayol edi. Siddiq bobo madrasa ta'limini olgan, adabiyot va musiqa ilmidan xabardor kosib-hunarmand bo'lgan. U fors-tojik o'zbek tillarida she'r yozganidan mahalliy aholi o'rtasida Hofiz bobo nomi bilan ham shuhrat qozongan. Chinni bibi mahalliy kosiblar bolalariga zat-savod o'rgatib, maktabdorlik qiluvchi ma'rifatli ayol edi. Jahon otin o'tkir zehni tufayli juda tez savod chiqarganligidan maktabda halifalik vazifasini bajarib, ma'rifat tarqatishda onasiga yaqindan yordam bergan. Fors-tojik adabiy va tillarni, badiiy adabiyot qoidalarini Jahon otin otasidan o'rgandi. Shoiraning akasi Ohunjon hofiz sifatida mashhur edi. Otasi va akasi Jahon otinga dutor, tanbur chalishni o'rgatdilar, musiqa ilmidan nazariy hamda amaliy ilm berdilar. Jahon otin Sharq mumtoz adabiy merosini mustaqil ravishda mutolaa etdi. U mana shu yo'sinda adabiy-marifiy jihatdan balog'at qozondi.

Atoqli shoira, o'zbek shoirlari murabbiysi Jahonotin Uvaysiy Marg'ilonda tug'ilgan. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she'rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo'lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. Uvaysiyning Hojixon ismli kosibga uzatishgan, biroq shaxsiy hayoti quvonchli kechmagan. U Nodira bilan hamdardlikda Qo'qonda xon saroyida yashay boshlaydi. 65 yoshligida Marg'ilonda vafot etadi. Uvaysiyning 15.000 misraga

yaqin she'riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O'R FA ShIda saqlanadi (inv.№1837). Unga shoiraning g'azal, muxammas, musaddas, murabba'lari va "Shahzoda Hasan" hamda "Voqeoti Muhammadalixon" dostonlari kiritilgan. Shoira devonining 3 nusxasi topilgan. "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn" kabi dostonlari mavjud, "Voqeoti Muhammadalixon" nomli tarixiy asari tugallanmagan. Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan. "Majmuai shoiron" tazkirasida (1821) ham shoira ijodiga munosabat bildiriladi. Ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova v.b. tomonidan o'rganilgan.

Shoironing qalamidan;

*Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendan o'rgandi,
Vujudin sham'iy so'zon aylamakni mendan o'rgandi.*

*Borib sahroga, qon bag'rmdin izhor ayladim bir kun,
Falak bag'rin qizil qon aylamakni mendan o'rgandi.*

*Seni izlarman andoqkim, quyosh diydorin izlarda,
Kezib tun-kun, shitobon aylamakni mendan o'rgandi.*

Jahon otinning otasi erta vafot etdi. Onasi va akasi Ohunjon hofiz 17 yoshli Jahon otinni marg'ilonlik ziyoli hojihonga uzatdilar. Jahon otin Muhammadjon va Quyoshhon ismli farzandlar ko'rdi. Shoira farzandlarini ham ziyoli, ma'rifatli indonkar etib tarbiyalashga imkon qadar intildi. Shu davrda Qo'qon hukmdori Olimhon ukasi Umarbekni Marg'ilon hokimi etib tayinladi. Jahon otinning

akasi va turmush o'rtog'i Umarbek saroyida e'tiborli lavozimlarda xizmat qildilar. Bu davrda Jahon otin Uvaysiy maktabdor muallima va shoira sifatida Marg'ilondagina emas, balki atrofdagi tumanlarda ham mashhur bo'lib qolgan edi.

Shoiraning qalamidan;

*Bugun, ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,
Gado bo'lsam, ne ayb, ul sho'hi davronimni sog'indim.*

*Musofirman, g'aribman, bekasu ham benavodurman,
Vujdonim darda to'ldi, emdi davronimni sog'indim.*

*Tilimning zikriyu ko'nglimning fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.*

*Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirman, tikarman ko'z,
Kelib holim so'rabon ketsa, mehmonimni sog'indim.*

*Nasibin uzmadi tangrim, ilojin topmag'ay kelsa,
Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil, qonimni sog'indim,*

*Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin,
Ko'zu ko'nglim ziyosi, mohi tobonimni sog'indim.*

*Mani bekas Uvaysiy yig'lag'ayman ro'zu shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko'z ravshani, honimni sog'indim.*

Jahon otin Uvaysiy saroyga taklif etiladi va Mohlaroyim Nodira bilan tanishish baxtiga muyassar bo'ladi. Uvaysiy va Nodira, shuningdek, saroydagi tab'i

nazmi bor ayollar-Ko'ka bibi, Qo'zixon, Ulfat begimlar orasida do'stona, ustodu shogirdlik, adabiy maslaqdoshlik munosabatlari shakllana boshladi. Ushbu munosabatlar Nodiraning fojiyali o'limigacha davom etadi.

Shoiraning qalamidan;

*Dil manzarani pok etibon muntazir o'ldum,
Bo'lg'aymu ekin tab'I gulzoringg'a munosib?*

*Rashk otashini, Vaysiy, bugun ayla muqarrar,
Yuz sen kabi devona nigoringa munosib.*

*Jon tasadduq boshining uzra chirmag'an dastoringa,
Bosh taasdduq so'zlagan shahdu shaker guftoringa.*

*Zulfim bila band ayladi poyim bila dastim,
Qabl anta mamotig'a kamon ayladi jallod.*

Uvaysiy umr yo'ldoshidan bevaqt judo bo'ldi. Qo'qon xonligi taxtiga ko'tarilgan Umarxon Nodira iltimosiga binoan Uvaysiyni ikki farzandi bilan birga Qo'qonga ko'chirtiradi. Uvaysiy Nodiraning doimiy hamkorligida hayot kechiradi va ijod qiladi. Bir necha yil saroyda, alohida ko'chib chiqqanidan keyin esa mahallada she'riyat va ma'rifat, musiqa ta'limi borasida murabbiylik qilib, shogirdlar tarbiyalaydi. Uvaysiyning Ojiza, Jahon bibi, hayot, baqo, dilorom ismli shoira shogirdlari bo'lganligi ma'lum. Amir Umarxon vafotidan keyin, qo'qon xonligi Muhammadalixon tasarrufiga o'tgach, Uvaysiy, Nodiraning va umuman ijod ahlining taqdiri tanazzulga yuz tutdi.

Muhammadalixon Uvaysiyning o'g'li
Muhammadxonni sarboz etib, Qashqar yurishiga jo'natdi.
Shoiraning moddiy va ma'naviy-ruhiy ahvoli yomonlashdi.
Qo'qondagi homiysi hamda boshpanasidan mahrum bo'ldi.
O'g'lining diydoriga muyassar bo'la olmay, Nodiraning
maslahatiga kirib, yolg'iz qizi bilan Marg'ilonga qaytdi.
Uvaysiy bor murabbiylik mahoratini, onalik mehrini
safariy etib, go'zal qizi Quyoshxonni barkamol inson
yetuk shoira darajasida ulg'aytirdi. Quyoshxon Xoqiy
taxallusi bilan she'rlar yozar, dutor va tanburda ajoyib
kuylar chalar edi. Ammo Quyoshxon Abdusamad qori
nomli kishiga uzatiladi, ijodiy fazilatlari unga yoqmaydi,
qattiq siquvga olinib, azob-uqubatda o'ttiz yoshida
olamdan ko'z yumadi. Jabrdiyda Uvaysiyning so'ngi ilinji
bir yashar yetim qolgan nabirasi Bibi xadichani insoniy
ijodiy balog'atga yetkazish bo'lib qoladi. Lekin farzandlari
singari bu orzu ham juvonmard bo'ladi. Xadicha o'n-o'n
bir yoshlarga yetganida, 1850-yilda Uvaysiy Marg'ilonda
vafot etadi.

Shoiraning qalamidan;

*Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,
Bu ko'tohfaxm mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.*

*Bu gulzori fano ichra mahalli behalal yo'qdur.
Hamesha zahmi xorodin ko'ngil dog' o'ldi, dog' o'ldi.*

*Fano mardumlarini sirridin hech kimga yo'q ogah,
Qabihguftor mardumdin ko'ngul do'g' o'ldi, dog' o'ldi.*

Uvaysiy avlodlaridan bir qator shoir va shoirlar

sulolasi yetishib chiqqan.

